

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Saidov Doniyor Abdullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti «Bank ishi» kafedrası dotsenti

<https://orcid.org/0009-0007-3605-2274>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22636607>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 3-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 7-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur tezısdı tıjorat bankları moliyaviy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish masalalari AT «Aloqabank» va AT «Xalq bank»i misolida tadqiq etilgan. Tahlil uchun 2021-2025 yillar yakuni bo’yicha bank aktivlari, kredit portfeli, kapital, depozitlar, muammoli kreditlar ulushi hamda ular asosida hisoblangan kapitallashuv, kredit-depozit, kreditlarning aktivlardagi va depozitlarning aktivlardagi ulushi ko’rsatkichlaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijasida bank moliyaviy barqarorligini kapital, aktivlar sifati, rentabellik, likvidlik va moliyalashtirish barqarorligi hamda tarkibiy risklarni yagona tizimda qamrab oluvchi kompleks moliyaviy barqarorlik indeksi asosida baholash taklif etilgan. Empirik tahlil Xalq bankida aktivlar sifati va kapital buferining sezilarli yaxshilanganini, Aloqabankda esa kredit sifati nisbatan yuqori bo’lishi bilan birga tez sur’atlardagi aktivlar o’sishi kapitallashuv dinamikasini doimiy nazorat qilish zaruratini ko’rsatgan.

Kalit so’zlar:

moliyaviy barqarorlik, tijorat banki, kompleks baholash, kapitallashuv, NPL, likvidlik, kredit–depozit nisbati, ROA, ROE, LCR, NSFR, risk, integral indeks.

Kirish

Tijorat bankining moliyaviy barqarorligi uning joriy majburiyatlarni o’z vaqtida bajarishi, aktivlar sifatini saqlashi, yetarli kapital va likvidlik zaxiralariga ega bo’lishi, tashqi va ichki shoklar ta’sirida ham daromad keltirish qobiliyatini saqlab qolishi bilan belgilanadi[1]. Shu sababli moliyaviy barqarorlikni faqat kapital yetarliligi, likvidlik yoki rentabellik kabi bitta ko’rsatkich orqali baholash bankning real risk profilini to’liq aks ettirmaydi.

Bank bir vaqtning o’zida yuqori kapitalga ega bo’lishi, ammo kredit portfeli sifati past bo’lishi mumkin. Yoki aksincha, muammoli kreditlar darajasi past bo’lgan bankda aktivlar juda tez o’sishi natijasida kapital buferi qisqarib borishi mumkin. Shu nuqtai nazardan bank moliyaviy barqarorligini ko’p komponentli va dinamik yondashuv asosida baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston bank tizimida ham riskka asoslangan nazorat, kapital va likvidlik buferlari, aktivlar sifati hamda banklarning tashqi shoklarga chidamliligini baholash mexanizmlarini takomillashtirishga e’tibor kuchaymoqda[2]. Bu sharoitda alohida tijorat banklari moliyaviy holatini bankning biznes modeli va rivojlanish sur’atlarini inobatga olgan kompleks metodologiya asosida baholash muhimdir.

Tahlilning maqsadi AT «Xalq bank»i va AT «Aloqabank»ning 2021-2025 yillardagi asosiy moliyaviy ko’rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish hamda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda gorizontal, vertikal, koeffitsientlar, dinamik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari hamda Xalq banki va Aloqabankning rasmiy hisobotlari tashkil etdi.

Bank moliyaviy barqarorligini kompleks baholashda beshta asosiy blokni qamrab olish taklif etiladi:

C - Capital stability: kapital yetarliligi, Tier 1, kapital/aktivlar nisbati va leverage;

A - Asset quality: NPL, Stage 3 kreditlari, proviziyalar bilan qoplanish darajasi va RWA zichligi;

P - Profitability: ROA, ROE, NIM va CIR;

L - Liquidity and funding: LCR, NSFR, kredit-depozit nisbati, barqaror depozitlar ulushi;

S - Structural resilience: aktivlar va kapital o'sishi mutanosibligi, valyuta riski, muddatlar GAPi va resurslar konsentratsiyasi.

Bloklarning tarkibi Bazel qo'mitasining kapital va likvidlik standartlariga[3] hamda xalqaro amaliyotdagi kompleks baholash yondashuvlariga tayanadi. Shu asosda muallif tomonidan quyidagi umumiy indeks taklif etiladi:

$$KMBI = 0,25C + 0,25A + 0,20P + 0,20L + 0,10S$$

Bu yerda KMBI - kompleks moliyaviy barqarorlik indeksi. Ushbu yondashuvda bankni birgina normativ koeffitsient bilan emas, kapital, risk, daromadlilik va moliyalashtirish barqarorligi o'rtasidagi o'zaro mutanosiblik asosida baholash nazarda tutiladi.

Tahlil va natijalar

1-jadval

Xalq bankining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari[4]

Ko'rsatkich	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Aktivlar, mlrd so'm	26 921	31 672	36 603	46 491	52 119
Kreditlar, mlrd so'm	19 596	21 666	24 549	29 620	33 600
Kapital, mlrd so'm	5 480	5 319	5 883	8 000	10 623
Depozitlar, mlrd so'm	11 649	13 583	17 044	23 709	26 618
NPL, %	19,7	11,9	7,6	4,2	3,1

Xalq banki aktivlari tahlil davrida 26,9 trln so'mdan 52,1 trln so'mgacha oshib, 93,6 foizlik o'sishni qayd etgan. Kredit portfeli 71,5 foiz, kapital 93,9 foiz va depozitlar 128,5 foizga ko'paygan.

Eng muhim ijobiy o'zgarish aktivlar sifatida kuzatilgan. Xalq bankida NPL darajasi 2021 yilyakunidagi 19,7 foizdan 2025 yil yakunida 3,1 foizgacha, ya'ni 16,6 foiz punktga pasaygan. 2021 yilda har besh so'mlik kreditning deyarli bir so'mi muammoli kreditlar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, tahlil davri oxirida mazkur muammo keskin yumshagan.

2-jadval

Aloqabankning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari[5]

Ko'rsatkich	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Aktivlar, mlrd so'm	12 638	16 084	16 045	23 251	31 528
Kreditlar, mlrd so'm	7 754	9 162	10 294	12 944	18 810
Kapital, mlrd so'm	1 674	1 795	2 643	3 082	3 847
Depozitlar, mlrd so'm	6 796	7 698	9 227	13 815	15 530
NPL, %	4,1	2,0	1,5	1,9	2,5

Aloqabank aktivlari besh yil mobaynida 12,6 trln so'mdan 31,5 trln so'mgacha yoki 149,5 foizga o'sgan. Kredit portfeli 142,6 foizga, kapital 129,8 foizga va depozitlar 128,5 foizga ko'paygan.

Bankning NPL ko'rsatkichi butun tahlil davrida Xalq bankiga nisbatan past bo'lgan. 2021 yilda 4,1 foizni tashkil etgan muammoli kreditlar ulushi 2023 yilda 1,5 foizgacha pasaygan va 2025 yil yakunida 2,5 foizni tashkil etgan.

2025 yil 1 yanvar ma'lumotlarini tekshirishda Aloqabankning rasmiy yillik hisobotida kredit portfeli 12944,3 mlrd so'm, depozitlari 13814,7 mlrd so'm ekani tasdiqlandi. Kreditlarning sifat tarkibi asosida NPL darajasi qariyb 1,9 foizni tashkil qiladi.

3-jadval

Xalq bankining moliyaviy barqarorlik koeffitsientlari[6]

Ko'rsatkich, %	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Kapital / aktivlar	20,4	16,8	16,1	17,2	20,4
Kredit / depozit	168,2	159,5	144,0	124,9	126,2
Kredit / aktivlar	72,8	68,4	67,1	63,7	64,5
Depozit / aktivlar	43,3	42,9	46,6	51,0	51,1
NPL	19,7	11,9	7,6	4,2	3,1

Xalq bankida kapitalning aktivlarga nisbati 2022 yilda 20,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda 16,1 foizgacha pasaygan. Keyingi ikki yilda kapital o'sishining tezlashishi natijasida ushbu ko'rsatkich 2025 yilda yana 20,4 foizga yetgan.

Kredit-depozit nisbati 168,2 foizdan 126,2 foizga pasaygan. Bu kreditlarni moliyalashtirishda depozit bazasining roli kuchayganini ko'rsatadi. Depozitlarning aktivlardagi ulushi ham 43,3 foizdan 51,1 foizga oshgan.

Shunday qilib, Xalq bankida 2021–2025 yillar davomida moliyaviy barqarorlikning uchta muhim yo'nalishida bir vaqtning o'zida ijobiy o'zgarish kuzatilgan: kapital buferi mustahkamlangan, depozit bazasi kengaygan va NPL keskin qisqargan.

4-jadval

Aloqabankning moliyaviy barqarorlik koeffitsientlari[7]

Ko'rsatkich, %	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Kapital / aktivlar	13,2	11,2	16,5	13,3	12,2
Kredit / depozit	114,1	119,0	111,6	93,7	121,1
Kredit / aktivlar	61,4	57,0	64,2	55,7	59,7
Depozit / aktivlar	53,8	47,9	57,5	59,4	49,3
NPL	4,1	2,0	1,5	1,9	2,5

Aloqabankda kredit-depozit nisbati tahlil davrining aksariyat qismida 100 foiz atrofida shakllangan. Bu kredit portfelinin depozit resurslari bilan qoplanishi nuqtai nazaridan Xalq bankiga nisbatan muvozanatliroq moliyalashtirish modelini ko'rsatadi.

Biroq kapital/aktivlar nisbati 2023 yildagi 16,5 foizdan 2025 yilda 12,2 foizgacha pasaygan. Bu holat kapital hajmi kamayganini emas, balki aktivlar kapitaldan yuqori sur'atlarda o'sganini anglatadi.

Xususan, 2024 yilda Aloqabank aktivlari 44,9 foizga, kapitali esa 16,6 foizga o'sgan. 2025 yil yakuniga kelib aktivlar yana 35,6 foizga, kapital 24,8 foizga o'sgan. Demak, bankda biznes ko'lamining tez kengayishi kapital buferining aktivlarga nisbatini bosqichma-bosqich kamaytirmoqda.

Bu kompleks baholashning ahamiyatini yana bir bor ko'rsatadi: NPL past bo'lishi bankning barcha yo'nalishlarda bir xil yuqori barqarorlikka ega ekanini avtomatik ravishda anglatmaydi.

5-jadval

Xalq banki va Aloqabankning 2025 yil yakuni bo'yicha qiyosiy moliyaviy barqarorligi[8]

Mezon	Xalq banki	Aloqabank	Baholash
Kapital / aktivlar, %	20,4	12,2	Xalq banki ustun
NPL, %	3,1	2,5	Aloqabank ustun
Kredit / depozit, %	126,2	121,1	Aloqabank muvozanatli
Depozit / aktivlar, %	51,1	49,3	Xalq banki biroz ustun

Mezon	Xalq banki	Aloqabank	Baholash
Kredit / aktivlar, %	64,5	59,7	Aloqabankda konsentratsiya past
2024–2025 aktivlar o'sishi, %	12,1	35,6	Aloqabank tez o'smoqda
2024–2025 kapital o'sishi, %	32,8	24,8	Xalq bankida kapital tez o'sgan

Ushbu natijalar ikki bank moliyaviy barqarorligining turli manbalarga tayanishini ko'rsatadi. Xalq bankida asosiy ustunlik - kapitallashuv darajasining yuqoriligi va NPLni juda yuqori darajadan keskin pasaytirishga erishilganidir.

Aloqabankda esa aktivlar sifati va kredit-depozit mutanosibligi nisbatan barqaror. Biroq aktivlarning tez o'sishi kapitalning aktivlarga nisbatan salmog'i pasayib borishiga sabab bo'lmoqda.

Demak, faqat NPL bo'yicha qaralganda Aloqabank barqarorroq, kapital buferi bo'yicha qaralganda esa Xalq banki ancha kuchli natija ko'rsatadi. Kompleks metodologiya aynan ana shu turli yo'nalishdagi afzallik va risklarni bir vaqtda ko'rsatish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini kapital yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik, likvidlik va moliyalashtirish, shuningdek tarkibiy risklarni qamrab oluvchi besh blokli kompleks baholash tizimi asosida aniqlash taklif etilganidan iborat. Shuningdek, aktivlar o'sishi va kapital o'sishi o'rtasidagi farqni ifodalovchi Growth-Capital Gapni moliyaviy barqarorlikning erta ogohlantirish indikatori sifatida qo'llash taklif etilmoqda.

Умуман олганда, 2021–2025 yillar bo'yicha o'tkazilgan tahlil Xalq banki va Aloqabank moliyaviy holatida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi.

Xalq banki aktivlari 93,6 foiz, kapitali 93,9 foiz va depozitlari 128,5 foizga o'sgan. Ayniqsa, NPL darajasining 19,7 foizdan 3,1 foizgacha pasayishi bank moliyaviy barqarorligi nuqtai nazaridan eng muhim ijobiy natija hisoblanadi.

Aloqabankda aktivlar 149,5 foizga, kreditlar 142,6 foizga va kapital 129,8 foizga o'sgan. Bankda NPL 2021 yildagi 4,1 foizdan 2025 yilda 2,5 foizgacha pasaygan. Biroq so'nggi yillarda aktivlar kapitalga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sgani kapital/aktivlar nisbatining 2023 yildagi 16,5 foizdan 2025 yakunida 12,2 foizga pasayishiga olib kelgan.

Shundan kelib chiqib, bank moliyaviy barqarorligini baholashda alohida normativlarni mexanik taqqoslashdan kompleks va dinamik baholash tizimiga o'tish zarur. Taklif etilayotgan model bank rahbariyati va regulyatorga moliyaviy barqarorlikning kuchli va zaif tomonlarini erta aniqlash, kapital, aktivlar sifati, likvidlik va rentabellik bo'yicha boshqaruv qarorlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Saunders A., Cornett M.M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. - New York: McGraw-Hill, 2021.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Basel Framework. — Basel: Bank for International Settlements. www.bis.org/basel_framework.
3. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. — Basel: BIS, 2017.
4. www.cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.
5. <https://xb.uz>. AT Xalq banki (2021–2025). Yillik va moliyaviy hisobotlari(5;7).
6. <https://aloqabank.uz/uz>. AT «Aloqabank» (2021–2025). Yillik va moliyaviy hisobotlari.(6;8).